**Xusan XASANOV**
*Islom taraqqiyot bankining*
*O'zbekistondagi vakili*
*Kkhasanov@isdb.org*

**Olimboy Tohirovich DAVLATYAROV,**
*Misr davlatida erkin izlanuvchi,*
*odavlatyarov@mail.ru*

# MISR ARAB RESPUBLIKASIDA ISLOM BANKLARI FAOLIYATI

# ИСЛАМСКИЙ БАНКИНГ В АРАБСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ ЕГИПТА

# ISLAMIC BANKING IN THE ARABIC REPUBLIC OF EGYPT

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Misr Arab Respublikasidagi islom banklari faoliyati yo'lga qo'yilishi va rivojlanishini yoritib berish va shu bilan birga soha faoliyatning rivojlanishi uchun to'siq bo'lgan omillar va noto'g'ri xatti-harakatlarni o'rganish orqali O'zbekistonda ham istiqboli porloq islom banklarini yaratish olg'a surilgan.*

**Tayanch iboralar:** *investitsiya banklari, mudoraba, murobaha, qaytim darajasi, piramida sxemasi, shar'iy nojoiz amaliyotlar.*

**Аннотация:** *В этой статье предлагается внедрение в будущем перспективных исламских банков в Узбекистане путем анализа становления и развития исламского банкинга в Египте, а также изучения ошибок и препятствий, замедляющих прогресс этой системы.*

**Ключевые слова:** *инвестиционные банки, мудараба, мурабаха, доходность, религиозный стимул, финансовая пирамида, деятельность не соответствующая шариату.*

**Abstract:** *In this article, it is proposed to introduce prospective Islamic banks in Uzbekistan in the future by analyzing the formation and development of Islamic banking in Egypt as well as learning the mistakes and obstacles slowing down the progress of this system.*

**Keywords:** *investment banks, mudarabah, murabah, rate of return, pyramid scheme, non-shariah compliant activities.*

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida "islom banklari" nomi ostidagi muassasalar soni yildan yilga ko'payib, aktivlari hajmi ham tobora oshib bormoqda. Yaratilganiga endi-endi yarim asrdan oshgan bu turdagi banklar nomusulmon o'lkalarga qo'yingki, musulmon jamiyatlardan ham ko'ra tezroq va osonroq kirib borayotgani hech kimga sir bo'lmay qoldi. Buning sababini turlicha izohlash mumkin. Masalan, ba'zi iqtisodchilar islom banklari faoliyatining real aktivlarga asoslanganini asosiy omil qilib ko'rsatishsa, ba'zilari ularning moliyaviy inqirozdan holi ekanligini ro'kach qilishadi. Va yana ba'zi olimlar bu kabi banklar jamiyat uchun zararli hisoblangan ko'plab faoliyatlarni cheklashi haqida bahs yuritishadi. Bizning fikrimizcha bu omillarning barchasi ushbu banklarni hozirgi amaldagi an'anaviy banklar bilan solishtirganda bir qator afzalliklarini yuzaga keltirgan. Buning isbotini iqtisodiy tahlillar o'tkazish orqali osongina ko'rish mumkin. Islom banklari faoliyati Islom fiqhiga asoslangani bois ular ba'zi narsalar tijoratiga ruxsat bergan holda ba'zi narsalarni chekalshni talab etadi. Shunisi bilan ularni ma'lum bir davlatga olib kirish uchun ancha ter to'kilishi kerak bo'ladi.

Umuman olganda, an'anaviy banklar yetakchilik qilayotgan har qanday o'lkada birdaniga islom banklari faoliyatini yo'lga qo'yish oson ish emas, albatta. Lekin shunga qaramay bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirgan Malayziya, Buyuk Britaniya, BAA va Saudiya Arabistoni kabi bir nechta mamlakatlarni tilga olishimiz mumkin. Shu bilan birga, ba'zi mamlakatlarda hukumat boshqaruvidagi demokratiyaning nomiga ekanligi, ya'ni aslida byurokratik tizim ustuvor ekanligi evaziga ko'plab sa'y-harakatlar bekor ketmoqda. Va yana boshqa birilarida esa islom banklari faoliyatini olib kirishdagi xato-kamchiliklar va nojoiz amaliyotlar sababidan ko'plab ishbilarmonlarning sohaga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqi so'nib, hafsalasi pir bo'lgani ham haqiqat. Shularni inobatga olgan holda, O'zbekistonga islom bankchiligi va islomiy moliyaviy faoliyatni olib kirishda har tomonlama o'ylab, iqtisodiy va moliyaviy tahlillar o'tkazib, kerak bo'lsa xorijiy tajribalarni chuqur o'rganib, ana undan keyin zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada ham islom banklari faoliyatini joriy etishda Misr tajribasi va unda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar o'rganilib, ulardan kerakli xulosa chiqarish uchun bir qator foydali ma'lumotlar yoritib berilgan.

Misrda islom bankchiligi va islom moliyasi faoliyati bo‘yicha ma’lum bir maxsus qonunchilik mavjud emas. Shu paytgacha amalda bo‘lib kelayotgan islom banklari va an’anaviy banklarning islomiy sho‘balari Misr Markaziy Banki (CBE) tomonidan taqdim qilinadigan litsenziya asosida faoliyat yuritishadi. Islom banklari mahsulotlarini taklif qilish uchun Misr Markaziy Bankidan, sukuk va takaful kabi non-banking islomiy moliyaviy mahsulotlarni taklif qilish uchun esa Misr Moliyaviy Nazorat Ma’muriyati (EFSA) tomonidan litsenziya olinishi kerak. Buxgalteriya borasida esa hanuz AAOFI standartlari joriy qilinmagan va amalda Misr Buxgalteriya Standartlari qo‘llanilib kelmoqda. Soliq va soliqqa tortish bo‘yicha ham soha faoliyati uchun ma’lum bir mezon yoki qonunchilik ishlab chiqilgan emas. Ya’ni bankchilik faoliyati va moliyaviy faoliyat yuritadigan har qanday yuridik shaxs qonunda belgilangan tegishli soliq to‘lovlarini to‘lashga majbur. Soha yuzasidan kelib chiqadigan har qanday kelishmovchilik va ziddiyatlarni ko‘rib chiqish uchun ham alohida sud yoki shunga o‘xshash huquqni himoya qiluvchi maxsus tashkilot mavjud emas. Bu borada hukumat sudlariga murojaat qilinadi. Shunga qaramay Misr tajribasi va unda yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘rganib, chuqur tahlil qilish islom banklari faoliyatini milliy iqtisodiyotga tatbiq qilmoqchi bo‘lgan har bir mamlakat uchun ko‘plab foydalarni taqdim etadi.

Umuman olganda Misrda bankchilik bo‘yicha asosiy amaldagi qonun 1975-yilda (Law 120/1975) qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra banklar 3 turga ajratiladi: 1) tijorat banklari (omonatlar qabul qiladi va bir qator turli amaliyotlarni moliyaviy ta’minlaydi); 2) biznes va investitsiya banklari (yangi bizneslarni rag‘batlantirish va investitsiyalarni moliyalashtirish kabi o‘rta va uzoq muddatli amaliyotlarni amalga oshiradi); 3) maxsus banklar (iqtisodiy faoliyatning ma’lum turiga xizmat qiluvchi amaliyotlarni amalga oshiradi va yana ular talabga ko‘ra omonatlarni ham qabul qilishi mumkin). Qayd etish kerakki, banklarning bu tarzda diversifikatsiya qilinishi bank sohasidagi katta islohatga ochilgan dastlabki qadamlardan edi. Lekin mamlakatdagi ilk islom bankchiligi harakati ushbu qonun qabul qilinishidan 10 yilcha oldin boshlanganiga qaramay, yuqoridagi tasnifda islom banklari alohida ajratilmagan. Misr islom banklari faoliyatini boshlab bergan va kelgusi islom banklarining tashkil etilishi uchun tajriba vazifasini o‘tagan eng dastlabki davlat bo‘lishiga qaramay, uzoq vaqt davomida hukumatdagi siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida mazkur soha rivojlanmasdan qolib ketdi va natijada hozirda soha faoliyati unchalik ham qoniqarli darajada emas. Bugunga kelib Misrda umumiy 40 ga yaqin bank faoliyati mavjud bo‘lib, ulardan 3 tasi to‘laqonli Islom banklari hisoblanadi va o‘zida islom darchalarini joriy qilgan an’anaviy banklar soni esa 12 ga teng. Misr Islomiy Moliya Birlashmasi (Egyptian Islamic Finance Association) ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-yilda Islom banklari aktivlari 12,8 mlrd atrofidagi AQSh $ ni tashkil etgan va bu ko‘rsatkich oldingi yilga nisbatan 10,24% ga ko‘pligi qayd etilgan. Islom bankchiligi ulushi esa Misrning umumiy bank sektorida 6 % ga teng bo‘lgan.

Misrda islom bankchiligining paydo bo‘lishi 3 xil bosqichda amalga oshdi: avvalo davlat va xususiy islom banklari yaratilishi, keyinchalik an’anaviy banklarda islomiy sho‘balar tashkil etilishi va so‘ngi jarayon norasmiy islomiy moliyaviy tashkilotlarning faoliyat boshlashi bilan bog‘liq. Dastlab tashkil etilgan davlat islom banklariga Meet Ghamr Banki (MGB) va Nasser Ijtimoiy Banki (NSB, 1971-yilda) kiradi. Meet Ghamr Banki dunyo islom bankchiligidagi ilk islomiy bank deya e’tirof etiladi. MGB bankining sezilarli muvaffaqiyatiga qaramasdan Hukumat bankni zudlik bilan nazorat ostiga olish kerak deb hisobladi. Ushbu nazoratga olish Hukumatning ikkita asosiy xavotiriga yechim edi. Birinchidan, bank qolgan moliyaviy tashkilotlar tomonidan e’tiroz bildirilgan qoidalar ostida amaliyot yuritayotgandi. Hukumat bunday qarshilik omma orasida qaysi biri Islomiy va qaysinisi Islomiy emas kabi tushunmovchilikka olib kelishidan va bu yetakchi bo‘lgan an’anaviy banklarning faoliyatiga ta’sir qilishi mumkinligidan cho‘chidi. Ikkinchidan, hukumat o‘zining sotsialistik mafkurasi va markaziy rejalashtirishga asoslangan iqtisodiyot boshqaruviga bank faoliyatidagi xavfni sezdi. Sotsialistik davrda, kapitalistik model va Islomiy xarakterning qorishuvi hisoblangan bir bank tabiiyki hukumat aralashuvi uchun xavf edi. Natijada MGB banki o‘z faoliyatidagi avtonomlikni yo‘qotdi va oxir oqibat 1968-yilga kelib yopib tashlandi. MGB bankning tajribasidan foydalangan Nasser Ijtimoiy banki (NSB) doimiy ravishda o‘z qoidalarini buzib kelgani qayd etilgan. Bank boshqa

moliyaviy muassasalar bilan bir qator foizga asoslangan o‘tkazmalarni amalga oshirganligi va yana u bir qancha fondlarni an’anaviy banklarda foizli qaytim asosida saqlagani ma’lum bo‘ldi. Bunday muammo asosan an’anaviy tizimda faoliyat yuritayotgan Islom banklari holatiga tegishli. Umumiy olib qaraydigan bo‘lsak, NSB rahbariyati Islom bankining ro‘li va uning o‘ziga xos qoidalari borasida to’liq ishonchni oqlay olmadi.

Misrda dastlab 90-yillarda ikkita xususiy Islom banki mavjud edi. Eng birinchi xususiy Islom banki Misrning Faisal Islom banki (FIBE) bo‘lib, u o‘z faoliyatini 1979-yilda boshladi. 1977-yildagi 48-sonli maxsus akt bankka barcha hukumat organlaridan mustaqil ravishda va shu bilan birga, Markaziy Bankning nazorati ostida faoliyat yuritishni ta’minlab berdi. Bank 1974-yildagi 43-sonli Investitsiya to‘g‘risidagi qonunga muvofiq bir qator imtiyozlarga ega bo‘ldi va o‘z navbatida ushbu qonun orqali yana ham ko‘proq soliq imtiyozlarini qo‘lga kiritdi. 1993-yilga kelib bankning yirik shaharlardagi filiallari soni 14 taga yetdi. Ikkinchi xususiy islom banki esa 1974-yildagi 43-sonli Investitsiya to‘g‘risidagi qonunga muvofiq 1980-yilda tashkil etilgan va o‘z faoliyatini 1981-yildan boshlagan Investitsiya va Taraqqiyot Islom Xalqaro Banki (IIBID) edi. 1990-yilga kelib yirik shaharlarda bankning 7 ta filiali mavjud edi va yana 4 ta filial qurulish jarayonida edi. Quyidagi jadvalda ushbu ikkala Islom bankining o‘z faoliyatlarining dastlabki besh yilida omonatlar hajmining misli ko‘rilmagan yuqori o‘sish darajalari haqida bilib olamiz.

| Yil-lar | FIBE | | IIBID | | NBE | | Barcha tijorat banklar | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Omon-at | O‘si-shi | Omon-at | O‘si-shi | Omon-at | O‘si-shi | Omonat | O‘si-shi |
| 1980 | 98.1 | - | - | - | 1796.1 | - | 6987.1 | - |
| 1981 | 354.1 | 261.1 | 6.0 | - | 2161.2 | 20.3 | 9932.5 | 42.2 |
| 1982 | 657.8 | 85.8 | 61.0 | 916.7 | 2364.2 | 9.4 | 12928.4 | 30.2 |
| 1983 | 1009.9 | 53.5 | 256.0 | 319.7 | 3031.4 | 28.2 | 15864.3 | 22.7 |
| 1984 | 1271.6 | 25.9 | 418.0 | 63.3 | 3625.2 | 19.6 | 18925.9 | 19.3 |
| 1985 | 2073.5 | 63.1 | 535.0 | 28.0 | 4824.5 | 33.1 | 26124.6 | 38.0 |
| 1986 | 2011.7 | (-3.0) | 596.0 | 11.4 | 6587.4 | 36.5 | 29065.2 | 11.3 |
| 1987 | 2892.1 | 43.8 | 622.0 | 4.4 | 7327.0 | 11.2 | 36525.1 | 25.7 |
| 1988 | 3210.3 | 11.0 | 654.0 | 5.1 | 9681.0 | 32.1 | 44637.0 | 22.2 |
| 1989 | 3424 | 6.7 | 306.6 | (-53.1) | 11763.0 | 21.5 | 54053.1 | 21.1 |
| 1990 | 4057 | 18.5 | 403.2 | 31.5 | 15004.0 | 27.6 | 70482.9 | 30.4 |
| 1991 | 5059 | 24.7 | 406.9 | 0.9 | 23683.0 | 57.8 | 89558.9 | 27.1 |
| 1992 | 4785 | (-5.4) | 484.9 | 19.2 | 30684.1 | 29.6 | 110999.2 | 23.9 |

**Jadval 1. 1980-1992 yillarda FIBE, IIBID, NBE va barcha tijorat banklaridagi omonatlar hajmi (mln, Misr junayhida) va ularning o‘sish sur’atlari**

Manba: FIBE, IIBID, NBE va NBE Iqtisodiy Bulleten yillik reportlari

Ikkala Islom bankining dastlabki faoliyat yillaridagi omonatlar hajmining yuqori sur’atlarda o‘sishiga asosan quyidagi omillar sabab bo‘lgani aytiladi:

1) *Yuqori qaytim darajasi*. Faoliyatining dastlabki 4 yili davomida Islom banklari an’anaviy banklar taklif qilayotgan nazoratli foiz stavkasi darajasidan mos ravishda 1 dan 3 martagacha yuqori bo‘lgan darajada omonatga qaytimlarni taqsimladi. Bundan maqsad yanada ko‘proq omonatchilarni jalb qilish edi desak xato bo‘lmaydi.

2) *E’tiqodiy moyillik*. Islom banklari tashkil etilgan ilk yillarda omonatlar hajmining keskin oshishi foiz bilan shug‘ullanmaydigan omonatchilar ehtiyojini ifodalaydi. Musulmonlarning zakot fondi orqali farovonlikka qo‘shgan hissasi ushbu banklarning islomiy xarakterini yanada boyitdi.

3) *Chet el valyutasidagi hisob raqamlari*. Ikkala bank ham omonatlarining yuqori nisbatini chet el valyutasida, asosan AQSh dollarida salqashdi. Ular daromadni mos ravishda xorijiy valyutalarda kotirovka qilingan ushbu omonatlar bo‘yicha taqsimlashdi. Bu esa milliy valyutada foiz stavkasi past bo‘lgan va Misr junayhi muntazam devolvatsiyaga yuz tutayotgan bir paytda yanada ko‘proq omonatchilarni jalb etdi. 1980-1990-yillar davomida 350 % atrofidagi Misr junayhining yuqori devolvatsiyasi xorijiy valyutadagi omonatlarning o‘sishiga turtki bo‘ldi.

Shularga qaramay, 1985-yildan keyin ikkala Islom bankidagi o‘rtacha o‘sish sur’atlari kamaya boshladi. Omonatlar o‘sishining yomonlashuvi quyidagilar sababidan:

1) *Boshqa Islomiy moliyaviy institutlarning yaratilishi*. Bularga norasmiy Islomiy Investitsion Kompaniyalar va rasmiy an’anaviy banklarning Islomiy sho‘balari kiradi. Islomiy Investitsion Kompaniylar 1980-yillarda faoliyat boshlab

o‘zlarining Islom qonunchiligiga muvofiqliklarini da’vo qilishgan. Bu kompaniylar rasmiy foiz stavkasidan deyarli ikki barobar ko‘p bo‘lgan yuqori darajadagi qaytim ulashishdi. Boshqa tarafdan esa an’anaviy banklarning Islomiy sho‘balari Islom banklarining dastlabki muvaffaqiyatlariga javob tariqasida tashkil etilib, ular ham Islom banklarini ma’lum bir omonatchilaridan mahrum qilganligi aytib o‘tiladi.

2) *Qaytim darajasining tushishi*. 1984-yildan boshlab ikkala bank tomonidan taqdim etilayotgan qaytim darajasi an’anaviy banklar taklif qilayotgan foiz stavkasi darajasidan ham pastga tusha boshladi va oxir oqibat omonatlar o‘sish darjasi ham kamayib qoldi.

3) *Noto‘g‘ri fatvoning ta’siri*. 1989-yilda Misr Muftiysi tomonidan berilgan fatvoda foiz stavkasi riboning shakliga kirmasligi belgilab berildi. Shuning uchun ham ushbu fatvoni qabul qiladiganlar uchun an’anaviy banklar bilan muomala qilish Islom nuqtai nazaridan qonuniy ya’ni joiz sanala boshlandi.[1]

4) *Qaytimning betartib taqsimlanishi*. 1989-yilda IIBID bank omonatlarining katta miqdorda, taxminan umumiy omonatlarning 53 % i chiqib ketishiga olib kelgan asosiy omillardan biri 1988- va 1989-yillarda qaytimni taqsimlashdagi uzoq kechikish edi.

5) *Islomiy Investitsion Kompaniylarning tugatilishi*. IIK lar Islom banklariga ikki marotaba salbiy ta’sir o‘tkazishdi. Dastlabki salbiy ta’sir yuqorida aytib o‘tganimiz ularning paydo bo‘lishi bilan sodir bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchisi ularning qulashi mobaynida kuzatildi. IIK lar qulagandan keyin Islom banklarining IIK lar bilan bog‘liqligi haqidagi xabarlar tarqala boshladi va bora bora bank ushbu bog‘liqlik sababidan katta yo‘qotishlarga duch keldi.

Islom banklari tashkil etilishidagi dastlabki yillarda ularning omonatchilarni jalb qilishdagi muvaffaqiyatiga javob tariqasida, ko‘plab an’anaviy banklar Islomiy sho‘balarini (filiallarini) shakllantirishdi. Bu borada Bank Misr Islomiy sho‘basini tuzgan ilk an’anaviy bank bo‘ldi, va uning amaliyotlari 1980-yildan boshlandi. 1990-yilning oxiriga kelib 23 ta an’anaviy bankning 68 ta Islomiy sho‘balari mavjudligi qayd etildi. Bu banklarning faqat 12 tasi xususiy bo‘lib, 26 tasi davlatga tegishli banklar va 24 tasi qo‘shma birlashmalar ya’ni qisman davlat banklarining egaligida bo‘lgan. Islomiy sho‘balar faoliyatini tahlil qilish biroz murakkab sanaladi, chunki ular faoliyatlaridan hosil bo‘lgan tushumlar asosiy banklarning boshqa operatsiyalari bilan aralashgani evaziga ularda alohida balans varoqlari yoki hisob raqamlari yo‘q. Ushbu muammo, shunga qaramay, mazkur sho‘balarning resurslari banklarning qolgan fondlari bilan aralashganini va banklar faoliyatlarini moliyalashtirishga yo‘nlatirilganini ko‘rsatadi. Xatto Islomiy sho‘balarning ba’zilari o‘z fondlarini idora qilishda avtonomlik berilgan holatlarda ham amaliyotda sho‘balar o‘z resurslaridan to‘laqonli samarali foydalanishlari qiyin kechgan. Ular omonatlarining 20% dan ko‘p bo‘lmagan qismi to‘g‘ridan to‘g‘ri murobaha shakliga ajratilgan, qolgani esa asosiy filiallarga omonatga qo‘yilgan. Shuning uchun ham ular Islomiy tamoyillarga to’liq rioya qila olishmadi. Bundan tashqari Islomiy sho‘balar diniy nuqtai nazardan olib qaralganda ikkita muhim jihatdan Islom banklaridan farq qilar edi: birinchidan, ularda banklarning operatsiyalarini belgilaydigan va barcha o‘tkazmalarda Islom fiqhiga rioya qilinishini baholab boradigan diniy ulamolar kengashi yo‘q edi, ikkinchidan ularda Islomiylikni ajratib turadigan *zakot* hisobi mavjud emasdi.

An’anaviy banklardagi Islomiy sho‘balarning tashkil etilishi bu mahsuolat diversifikatsiyasining bir shakli degan bo‘lar edik. Ular islomiy tiklanishdan foyda olish va mijozlarning tobora o‘sib borayotgan Islomiy moliyaviy institutlarga o‘tib ketishining oldini olish uchun tashkil etilgan edi. Ko‘plab filial tarmoqlariga ega bo‘lgan yirik an’anaviy banklarning kam sondagi Islomiy sho‘balarni ochishlari banklarning nazarda tutilgan bosqichma-bosqich islomiylashtirishining bir qismi emas edi, aksincha bu orqali boshidan Islomiy sho‘balarni iloji boricha nomiga va kichik sonda saqlab qolish ko‘zda tutilgan. Amaliyotda esa Islomiy sho‘ba bankning boshqa an’anaviy sho‘balaridan nomini hisobga olmaganda birorta sezilarli darajada farq qilmas edi. Ushbu sho‘balarning mavjudligi qaysi biri islomiy va qaysinisi emas mazmunidagi umumiy chalkashlikning asosiy sababi edi desak xato bo‘lmaydi.

[1] Mazkur fatvo 1989-yil 8-iyulda Investitsiya Sertifikatlari va Pochta Jamg‘armalari Fondining foiz stavkalari xususida berilgan edi. Keyinchalik bu fatvo ba’zi foizga asoslangan transaksiyalarga ham tatbiq etildi. Shuni ta’kidlash joizki, Al-Azhar imomi va boshqa taniqli ulamolar ushbu fatvoga qarshi chiqishgan.

Misrda alanga olgan islom banklari faoliyatida yuzaga kelgan asosiy muammolar quyidagilardan iboratligi qayd etib kelinadi:

1) Qisqa muddatli *murobaha* moliyalashtiruvining yetakchilik qilishi. Ya'ni islom banklari portfelining asosiy qismini murobaha faoliyati tashkil qilib, qolgan amaliyotlar ulardan keyingi o'rinda turadi. Bu amaliyot shar'an joiz bo'lishiga qaramay, u islom banklarini an'anaviy banklaridan ajaratib turadigan asosiy omil sifatida qaralmaydi. Murobahani amalga oshirishda *ijara va iqtina* xarid-ijara kelishuvlaridan foydalaniladi. Bu esa an'anaviy banklarning foizli ijarani moliyalahtirishiga bergan qarziga muqobil amaliyot hisoblanadi. Vaholanki, islom banklarining asl g'oyasi real aktivlar ya'ni ishlab chiqarish omillarinining odilona taqsimoti asosida hamkorlik yuritishni olg'a suradi.

2) PLS kelishuvlarning amaliy cheklangan ro'li. Foyda va zararni odilona taqsimlashga asoslangan amaliyotlar *musharoka* va *mudoraba* deb nomlanadi. Misr islom bankchiligida ularning faoliyati deyarli sezilmagan va bu islom banklarining sanoatdagi rivojlanishini yetarli darajada ta'minlab bera olmadi. Bu amaliyotlarning sustligiga sabab soliqqa tortish va buxgalteriya hisobida foyda va zarar bilan bog'liq shar'iy mezonlarning mavjud emasligi bilan ifodalanadi.

3) Shar'iy qonunlarning buzilishi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, islom banklarinig aksariyati o'z faoliyatida bir necha bor shar'iy cheklovlarni kesib o'tgani ma'lum bo'ldi. Buning oqibatida islom banklariga bo'lgan ishonch va ishtiyoq tobora susayib ketadi. Natijada to'g'ri faoliyat yuritadigan islom banklari faoliyati ham shubha ostida qoladi.

Ushbu muammalorning paydo bo'lishidagi asosiy sabablar sifatida malakali menejerlar yetishmasligi va islom bankchiligidagi amaliy tajribaning mavjud emasligi ko'rsatiladi.

Norasmiy islom moliyasiga Islomiy Investitsiya Kompaniylari kiradi. Ularning norasmiy deyilishiga sabab ular qonunchilikning hech bir shakliga rioya etishmaganligi va pul-kredit boshqaruvining nazoratiga va hatto, korxona qonunlariga ham bo'ysunishmaganligidir. Ularning faoliyati asosan qora bozorlarda kechgan. 1988-yilda ularning soni 105 taga. IIK larning tez sur'atlarda rivojlanishini bir necha omillar bilan ifodalash mumkin: ular o'zlariga nom tanlashda islomiy jumlalardan foydalanishgan, va yana ular ta'limga ega bo'lmagan omonatchilarni moliyaviy transaksiyalar ribodan holi deya ishontira olishgan. Shuni qayd etish kerakki, ushbu kompaniyalar bora-bora piramida sxemasiga moslashib qoldi. Ya'ni endi ular oldingi omonatchilarning omonatlarini yangi omonatchilar omonatga qo'ygan pul mablag'lari evazidan to'lashga o'tib olishdi. Bu esa iqtisodiy tizimga xavf soluvchi moliyaviy piramidaning ayni o'zidir. Natijada olinayotgan qarzlar real aktivlarning o'sishi evaziga emas, kelajakdagi qarzlar hisobidan qoplanishiga o'tildi. Aslida bunday faoliyat islomiy moliyada ham joiz bo'lmagan spekulyatsiyaning bir ko'rinishi edi. Uning bir necha salbiy oqibatlari mavjud, ulardan biri moliyaviy ko'pik hosil bo'ladi va uning natijasida inflyatsiya oshib, narxlar darajasi ko'tariladi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida Misrda islom bankchiligining faoliyat boshlashi va unga ta'sir qilgan ko'plab omillar, xususan hukumatning aralashuvi, shar'iy nojoiz amaliyotlar va noto'g'ri fatvolar kabilarni o'rgandik. Va shu bilan birga joriy holatda ya'ni ana'anaviy tizim ustunlik qilgan bir davrda va birorta ham islom banklari faoliyatiga oid alohida maxsus qonuchilik ishlab chiqilmagan bo'lsa ham soha faoliyati mavjudligi va aktivlar hajmining oshib borayotganaligi haqida ham bilib oldik. Bulardan umumiy xulosa qilinadigan bo'lsa, O'zbekiston sharoitida ham joriy bank qonunchiligi islom banklari faoliyati to'g'risida ma'lum bir ko'rsatmalarni o'z ichiga olmagan. Soliq kodekslari ham bu kabi banklarning soliq va soliqqa tortilishi haqida muayyan moddani ko'zda tutmagan. Lekin islom banklari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun yetarli darajada talab va potensial borligini hisobga olsak, Misr tajribasidan ma'lum darajada foyda olishimiz mumkinligi ma'lum bo'ladi. Xususan, faktga ko'ra hozirda Misrda islom banklari faoliyati haqiqatda mavjud va bu Misr Markaziy Bankining maxsus litsenziyasi orqali amalga oshirilmoqda. Shunday ekan, dastlab O'zbekistondagi banklarni ham jahondagi banklarning umumiy tasnifiga muvofiq diversifikatsiya qilish lozim. Bu bilan bankchilik sohasida yangi "biznes va investitsion banklar" hamda "maxsus banklar" turlari vujudga keladi. Biznes va investitsion banklar turi esa biz uchun yangi qadam bo'lib, uning ostida islom banklarini ham shakllantirish va yo'lga qo'yishimiz mumkin bo'ladi. Bunga sabab shuki, ularning

ishlash mexanizmi islom banklari tamoyillaridan unchalik farq qilmaydi. Chunki biznes va investitsion banklarda ham, islom banklarida ham asosiy faoliyat real aktivlarga qaratilgan bo‘ladi. Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, agar an’anaviy banklarda islomiy darchalar tashkil etiladigan bo‘lsa, mazkur darchalarning alohida buxgalteriya balansiga va alohida hisob raqamlariga ega bo‘lishi va ulardan tushgan pul mablag‘lari asosiy filialning fondiga qo‘shilib ketmasligi to‘liq ta’minlanishi zarur. Bundan tashqari, islom banklari faoliyatini faqat ba’zi murobaha va ijara kabi mahsulotlar bilangina cheklab qo‘yish ularning keng rivojlanishini to‘sib qo‘yadi. Islom banklari mahsulotlari sanab chiqilsa 30 tadan oshadi va ularning har biri o‘ziga yarasha jamiyatdagi ma’lum bir ishlab chiqarish bo‘lsin, tijoriy hamkorlik bo‘lsin barchasini qamrab olgan. Shunday ekan ularning to‘laqonli faoliyatini ta’minlash darkor. Chunki ular faoliyatining ma’lum bir yo‘nalishlar bilangina cheklab qo‘yilishi, yuqorida kabi Misrdagi IIK lar misolida aytib o‘tilgan piramida sxemasining qo‘llanishiga olib kelishi mumkin. Bu holatda islom bankchiligini yo‘lga qo‘yishdan ko‘zlangan maqsadga erishilmaydi, aksincha milliy iqtisodiyot salbiy ta’sirga uchraydi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda sohaning mahalliy hamda xorijiy mutaxasisslar bilan birgalikda muddatli milliy dastur/ yo’l xaritasi ishlab chiqilishi va bu muddatda islom banklari faoliyati atroflicha tahlil qilinib, qonunchilikka kerakli ishlov berish tavsiya etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1. Ahmed, S. (1989), Islamic Banking and Finance, Journal of Monetary Economics, Vol 24, pp. 157-167.
2. Blitz, R. and Long, M. (1965), The Economics of Usury Regulation. Journal of Political Economy, Dec., pp. 608-619.
3. Incentive-Based Regulations and Bank Restructuring in Egypt, Alaa El-Shazly, Cairo University, Topics in Middle Eastern and African Economies Vol. 3, September 2001
4. Roy, D., (1991), Islamic Banking, Middle Eastern Studies, Vol 27, No. 3, pp. 427-456
5. Amin, G. (1994), The Dilemma of thr Egyptian Economy, Cairo, Misr-Al-Arabia. [in Arabic]
6. Al-Ashker, A., (1990), Egypt: An Evaluation of the Major Islamic Banks, in Islamic Financial Markets, edited by Wilson, R., London: Routledge.
7. Al-Najar, A. (1993), The Movement of Islamic Banks, Cairo, Sprint. [in Arabic]
8. Al-Salous, A. (1991a), Banks and Investments, Cairo, Al-Azhar. [in Arabic]
9. Faisal Islamic Bank, Various Annual Reports, Cairo.
10. Islamic Finance, A Development Opportunity for Egypt, Wafik Grais, October 2012.
11. https://www.darienmiddleeast.com/hidden/time-for-egypt-to-take-a-lead-on-islamic-finance/
12. https://www.zawya.com/mena/en/business/story/Huge_potential_for_Islamic_banking_in_Egypt_lack_of_political_will_stymies_growth-ZAWYA20180111064610/
13. https://thelawreviews.co.uk/chapter/1150796/egypt